

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**«OILA VA GENDER» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**IKRAMOVA KAMOLA SHAVKATOVNA**

**YOSH OILALARDA ER-XOTIN O‘RTASIDAGI ZIDDIYATLAR  
PROFILAKTİKASINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
Psychological Sciences**

**Ikramova Kamola Shavkatovna**

Yosh oilalarda er-xotin o‘rtasidagi ziddiyatlar profilaktikasining ijtimoiy-psixologik jihatlar.....3

**Икрамова Камола Шавкатовна**

Социально-психологические аспекты профилактики конфликтов между супругами в молодых семьях .....25

**Ikramova Kamola Shavkatovna**

Socio-psychological aspects of preventing conflicts between spouses in young families.....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....52

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**«OILA VA GENDER» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**IKRAMOVA KAMOLA SHAVKATOVNA**

**YOSH OILALARDA ER-XOTIN O‘RTASIDAGI ZIDDIYATLAR  
PROFILAKTİKASINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/P331 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta’lim portalidagi ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ismailova Ra’no Nurayevna**  
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Karimova Vasila Mamanosirovna**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Karimov Xolmurod Karimovich**  
psixologiya fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. ( \_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**F.A.Akramova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**N.B.Atabayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Z.T.Nishonova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda er-xotin munosabatlaridagi ziddiyatlar ortidan har yili ajralishlar soni oshib borayotgani, nizoli oilalardagi farzandlar tarbiyasi va kelajagiga e'tiborsizlik ko'p uchrayotgani bois, bunday salbiy holatlarni bartaraf etish hamda ularning oldini olish, oilalar bilan ishlash tizimiga hayotiy, samarador mexanizmlarni joriy qilish masalalariga talab ortib bormoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari Sog'liqni saqlash tizimi statistikasi Milliy markazi (the United States' National Center for Health Statistics) ma'lumotlariga ko'ra, «AQSHda har yili 4-5 million nikoh qayd qilinib, ularning taxminan 42-53%i ajrim bilan tugaydi»<sup>1</sup>. Oila institutini rivojlantirish, oilani jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida muhofaza qilish va mustahkamlash, yosh oilalarda yuzaga keladigan ziddiyatlarning oldini olish mexanizmlarni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida oilada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni ta'minlash, nizoli vaziyatlarni bartaraf etish, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, oila a'zolarining xulq-atvorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy xususiyatlarning oldini olish, oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirish borasidagi ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada yosh oilada konfliktlar yuzaga kelishi, er-xotin shaxsida nizoli vaziyatlarga moyillik va agressivlik darajalari, juftliklardagi hayotiy mazmunning yo'nalganligi bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik muammolarni tadqiq etish orqali yosh oilada er-xotin o'rtasidagi ziddiyatlarning oldini olishga yo'naltirilgan masalalarga oid psixologik tadqiqotlar o'tkazish ilgari surilmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarida oilani mustahkamlash, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, oila a'zolarining huquq va burchlari ta'minlanishiga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Oilalarda ichki oilaviy va shaxsiy munosabatlarni, xususan, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, oilada mojaroli va og'ir turmush sharoitini amaliy hal qilish mexanizmlarini joriy etish»<sup>2</sup> vazifalariga asoslanib, yosh oilalarda er-xotinlar o'rtasidagi ziddiyatlarning oldini olish va takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda Oila va gender bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlari, 2022-yil 1-martdagi PQ-146-son «Oila va gender davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida», 2018-yil 27-

<sup>1</sup> <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/divorce-rates-by-country>

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 27.06.2018 йилдаги ПҚ-3808-сон “Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” Қарори. <https://lex.uz/docs/3797625>

iyundagi PQ-3808-son «O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori hamda ushbu faoliyat tizimiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston psixolog olimlaridan D.U.Abdullayeva, X.U.Abdusamatov, F.A.Akramova, R.N.Alimardanova, M.X.Fayziyeva, I.A.Jabborov, V.M.Karimova, X.K.Karimov, Z.B.Rasulova, F.R.Ro‘ziqulov, A.T.Ro‘ziqulova, N.A.Sog‘inov, S.Sh.Ummatova, E.E.G‘oziyev, U.B.Shamsiyev, G‘.B.Shoumarov va boshqalar er-xotinlar o‘rtasida ziddiyatlar kelib chiqishining ijtimoiy-psixologik omillari, oilaviy munosabatlarning o‘ziga xosliklari, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, yosh oilalardagi turli nizoli holatlar kabi masalalarni ilmiy tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan Y.E.Aleshina, A.Y.Ansupov, I.Y.Borisov, S.V.Dvoryak, L.Y.Gozman, L.G.Jedunova, D.Z.Kapustin, N.N.Korostileva, S.V.Kovalev, T.A.Kryukova, E.V.Kuftyak, N.V.Malyarova, P.D.Pavlenok, N.N.Posisoyev, M.V.Saporovskaya, V.A.Sitsenko, V.V.Stolin, V.Z.Vladin, A.G.Xarchev, B.G.Xersonskiy, L.B.Shneyder, S.G.Shuman va boshqalarning izlanishlarida er-xotinlarning shaxslararo munosabatlari, nizoli vaziyatlarda xulq-atvor shakllarining namoyon bo‘lishi, oilaviy ziddiyatlarga erkak va ayollardagi ijtimoiy ustanovkalarining ta‘siri ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan.

Xorij mutaxassislaridan A.Adler, G.Allport, J.Dollard, V.Frankl, S.Freud, E.Fromm, K.Horney, C.Jung, D.Krech, G.LeBon, K.Lewin, K.Lorenz, W.McDougall, N.Miller, C.Rogers, J.Rotter, J.P.Sartre, R.Sears, S.Siegel va boshqalar tomonidan oilaviy ziddiyatlarga shaxsdagi agressivlikning ta‘siri, er-xotinlar o‘rtasidagi turli kelishmovchiliklarning ijtimoiy-psixologik determinantlari, juftliklarning ijtimoiy rollaridagi tafovutli jihatlariga asoslangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsion tadqiqot «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining JHBL-8-sonli «Oilali talabalarning ajrim holatlari va ularni oldini olishning psixologik jihatlari» amaliy loyihasi doirasida bajarilgan. («Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 29-apreldagi 01-09-1902-sonli ma‘lumotnomasi).

**Tadqiqotning maqsadi** yosh oilalarda er-xotin o‘rtasidagi ziddiyatlar namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganish asosida nizoli holatlarning oldini

olishga oid amaliy usullarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

nizoli vaziyatlarda yosh er-xotinlar o'zaro munosabatlarining yetakchi komponentlarini aniqlash;

yosh er-xotin shaxsida nizoli vaziyatlarga moyillikning oilaviy ziddiyatlar yuzaga kelishi bilan bog'liqligini o'rganish;

yosh oilada er-xotin o'rtasidagi ziddiyatlarning agressivlik darajasi va hayotiy mazmun yo'nalganligidagi tafovutlar bilan aloqadorlik jihatlarini asoslash;

yosh er-xotinlar o'rtasida ziddiyatlar namoyon bo'lishini bartaraf etish va oldini olish bo'yicha psixokorreksion dastur ishlab chiqish hamda uning samaradorligini baholash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida yosh oilalarda er-xotin o'rtasidagi ziddiyatlarning oldini olish jarayoni tanlangan bo'lib, Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi yosh oilalardan 63 juftlik (126 nafar), Navoiy viloyatida istiqomat qiluvchi yosh oilalardan 61 juftlik (122 nafar), Xorazm viloyatida istiqomat qiluvchi yosh oilalardan 60 juftlik (120 nafar) – jami 368 nafar er-xotinlar tadqiqotga jalb etildi.

**Tadqiqotning predmetini** yosh oilada er-xotin o'rtasidagi ziddiyatlar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik jihatlarini va nizoli holatlarning oldini olish imkoniyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek, Y.E.Aleshina va L.Y.Gozmanlarning «Nizoli vaziyatlarda er-xotinlarning o'zaro munosabatlari xususiyati» metodikasi, K.N.Tomasning «Shaxsning konfliktli xulq-atvoriga moyilligini diagnostika qilish» metodikasi, Bass-Darkining «Tajovuz holati tashxisi» metodikasi, D.V.Jelatelevning «Shaxsning hayotiy mazmunini o'rganish» metodikalaridan, hammualliflikdagi «Yosh er-xotinlarning ziddiyatli vaziyatlarga munosabatini aniqlash» (R.N.Ismailova va K.Sh.Ikramova) so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Kruskal-Uollis H-mezoni, Student t-mezoni, K.Pirsonning r–korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yosh oilada ziddiyatlar ijtimoiy-psixologik determinantlarga bog'liq holda namoyon bo'lishi natijasida oilaviy muhitning nosog'lomligi, adaptatsion inqirozlar dinamikasi, hayotiy tajribaning yetishmasligi, ijtimoiy rollarni funksional bajarishda vaqt kamligining faol ifodalanishi sababli er-xotinlar shaxsida nizolashuvchanlik xususiyatlari yetakchi psixologik determinant bo'lishi dalillangan;

shaxsning nizoli vaziyatlarga moyillik xususiyatlari ziddiyatlar bilan ta'sirlashuv jarayonlariga muvofiq, konfliktli holatlarda turmush o'rtog'ining manfaatlarini hurmat qilmaslik, bahs-munozaradan qaytmaslikning ustun kelishiga ko'ra nizoli xulq-atvor shakllaridan «hamkorlik», «murosaliqlik»ning kuchaytirilishi orqali yosh er-xotinlar o'rtasida kelishmovchiliklarning psixologik prevensiyasi dalillangan;

oilaviy munosabatlar siklida yosh er-xotinlar orasidagi ziddiyatlarning agressivlik darajalari bilan bog'liq ravishda namoyon bo'lishiga ko'ra, salbiy hissiyotlarini psixolingvistik ifodalash, turmush o'rtog'iga nisbatan verbal agressiya,

o'z fikrida statik turib olish, o'zgalarga nisbatan nonkonformizmni namoyon etish orqali nizoli holatlarning «bilvosita agressiya», «negativizm» komponentlari bilan ustuvor korrelyat xarakteriga ega ekanligi isbotlangan;

hayotiy mazmun yo'nalganligidagi tafovutlarning ziddiyatlar yuzaga kelishiga ta'siri natijasida er-xotinlar fe'l-atvorining o'zaro nomutanosibligi, qarashlardagi differensiallik ijtimoiy va ma'naviy yo'nalganlikning namoyon bo'lishiga qarama-qarshi proporsionalligi tufayli yosh oilalarda moddiy motivlar va qadriyatlarining transformatsiyasining «pulga nisbatan munosabatlarning mos kelmasligi» bilan adekvat rivojlanishi asoslanilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

yosh oilada er-xotin o'rtasidagi ziddiyatlar namoyon bo'lishining tarkibiy komponentlari o'zaro aloqadorligi va uning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashtirish asosida oilaviy nizolarning oldini olish, shuningdek, ularni bartaraf etish bo'yicha korreksion-rivojlantiruvchi dastur ishlab chiqilib, amaliyotga kiritilgan;

yosh oilada er-xotin o'rtasidagi ziddiyatlarning yuzaga kelishini tekshirishga xizmat qiluvchi psixodiagnostik metodikalarning modifikatsion variantlari taklif etilib, aprobatsiya qilingan;

yosh oilada er-xotinlar o'rtasida ziddiyatlar namoyon bo'lishi va ularga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil etilishi asosida nizoli holatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** izlanish obyektlarining maqsadga mos tanlanganligi, respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, foydalanilgan metodikalarning validligi, qo'lga kiritilgan empirik miqdorlarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, bunda zamonaviy elektron dasturiy vositalar qo'llanilgani, izlanishlar aniq va rejaviy bosqichlarda bir-birini to'ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yosh er-xotinlar o'rtasida ziddiyatlarning namoyon bo'lishi nizoli xulq-atvor shakllari, agressivlik darajasi, hayotiy mazmunning yo'nalganligidagi tafovutlar bilan aloqadorligi asoslanilishi hamda yosh oilalarda nizolashuvchanlikka moyillik, tajovuzkorlik holati, oilaviy ziddiyatlarning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarning mazmun-mohiyati ochib berilganligi hamda olingan natijalar «Oila psixologiyasi» fanini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan tajribaviy-empirik ma'lumotlardan oilaviy nizolarning oldini olish jarayoni samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi, olingan natijalar va ilgari surilgan g'oyalar yosh oilalarga taalluqli konseptual nazariyaning shakllanishiga xizmat qilishi, nazariy umumlashma va tahlillarda yosh er-xotinlar o'rtasidagi ziddiyatlarni tekshirishga mo'ljallangan metodikalardan foydalanishda, oilalarda nizoli holatlarning yuzaga kelishini aniqlashda, shuningdek, «Ijtimoiy psixologiya», «Psixologik xizmat asoslari», «Oila psixologiyasi» fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar nazariy va amaliy jihatdan boyitish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yosh oilada er-xotin o'rtasidagi ziddiyatlarning oldini olishning ijtimoiy-psixologik jihatlariga oid muammoni tadqiq etish natijasida:

yosh oilada ziddiyatlar ijtimoiy-psixologik determinantlarga bog'liq holda namoyon bo'lishi natijasida oilaviy muhitning nosog'lomligi, adaptatsion inqirozlar dinamikasi, hayotiy tajribaning yetishmasligi, ijtimoiy rollarni funksional bajarishda vaqt kamligining faol ifodalanishi sababli er-xotinlar shaxsida nizolashuvchanlik xususiyatlari yetakchi psixologik determinant bo'lishi dalillanishiga doir xulosalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-231-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya» va «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2024-yil 8-oktyabrdagi PM-231a-son ma'lumotnomasi). Natijada adaptatsion inqirozlar dinamikasi, hayotiy tajribaning yetishmasligi, ijtimoiy rollarni funksional bajarishda vaqt kamligining faol ifodalanishi sababli er-xotinlar shaxsida nizolashuvchanlik xususiyatlari yetakchi o'rin tutishini tahlil etishga sharoit yaratilgan;

shaxsning nizoli vaziyatlarga moyillik xususiyatlari ziddiyatlar bilan ta'sirlashuv jarayonlariga muvofiq, konfliktli holatlarda turmush o'rtog'ining manfaatlarini hurmat qilmaslik, bahs-munozaradan qaytmaslikning ustun kelishiga ko'ra nizoli xulq-atvor shakllaridan «hamkorlik», «murosaliilik»ning kuchaytirilishi orqali yosh er-xotinlar o'rtasida kelishmovchiliklarning psixologik prevensiyasi dalillangan xulosalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-231-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya» va «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2024-yil 8-oktyabrdagi PM-231a-son ma'lumotnomasi). Natijada nizoli vaziyatlarga moyillik xususiyatlari ziddiyatlar bilan ta'sirlashuv jarayonlariga muvofiq, konfliktli holatlarda turmush o'rtog'ining manfaatlarini hurmat qilmaslik, bahs-munozaradan qaytmaslikning ustun kelishiga ko'ra nizoli xulq-atvor shakllaridan «hamkorlik», «murosaliilik»ning kuchaytirilishi orqali yosh er-xotinlar o'rtasida kelishmovchiliklarning psixologik prevensiyasi asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan;

oilaviy munosabatlar siklida yosh er-xotinlar orasidagi ziddiyatlarning agressivlik darajalari bilan bog'liq ravishda namoyon bo'lishiga ko'ra, salbiy hissiyotlarini psixolingvistik ifodalash, turmush o'rtog'iga nisbatan verbal agressiya, o'z fikrida statik turib olish, o'zgalarga nisbatan nonkonformizmni namoyon etish orqali nizoli holatlarning «bilvosita agressiya», «negativizm» komponentlari bilan ustuvor korrelyat xarakteriga ega ekanligi isbotlashga oid takliflar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-231-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya» va «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2024-yil 8-oktyabrdagi PM-231a-son ma'lumotnomasi). Natijada yosh er-xotinlar orasidagi ziddiyatlarning agressivlik darajalari bilan bog'liq ravishda namoyon bo'lishiga ko'ra, salbiy hissiyotlarini psixolingvistik ifodalash, turmush o'rtog'iga nisbatan verbal agressiya, o'z fikrida

statik turib olish, o'zgalarga nisbatan nonkonformizmni namoyon etish orqali nizoli holatlarning «bilvosita agressiya», «negativizm» komponentlari bilan ustuvor korrelyat xarakteriga ega ekanligi isbotlashga oid takliflar ishlab chiqilgan;

hayotiy mazmun yo'nalganligidagi tafovutlarning ziddiyatlar yuzaga kelishiga ta'siri natijasida er-xotinlar fe'l-atvorining o'zaro nomutanosibligi, qarashlardagi differentsiallik ijtimoiy va ma'naviy yo'nalganlikning namoyon bo'lishiga qarama-qarshi proporsionalligi tufayli yosh oilalarda moddiy motivlar va qadriyatlarining transformatsiyasining «pulga nisbatan munosabatlarning mos kelmasligi» bilan adekvat rivojlanishi asoslanilgan O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-231-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya» va «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 8-oktyabrdagi PM-231a-son ma'lumotnomasi). Natijada yosh oilalarda moddiy motivlar va qadriyatlarining yetakchiligi «pulga nisbatan munosabatlarning mos kelmasligi» bilan uyg'un rivojlanishini tahlil qilish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari respublika miqyosidagi 2 ta va xalqaro darajada 2 ta ilmiy konferensiyalarda muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot ishining asosiy natijalari bo'yicha 8 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnalda nashr etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 140 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, dissertatsion tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalari bilan aloqadorligi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma'lumotlarning ishonchliligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi va ularning sinovdan o'tishi bayon qilingan. Bundan tashqari chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Er-xotin o'rtasidagi ziddiyatlar muammosining ilmiy-nazariy tahlili**» deb nomlangan bo'lib, unda yosh oila va unda yuzaga keladigan ziddiyatlarning ijtimoiy-psixologik mazmuni, xorij olimlari tadqiqotlarida yosh oilada er-xotin o'rtasidagi ziddiyatlar masalasining yoritilishi, Sharq mutafakkirlari qarashlarida va O'zbekiston psixologlari tadqiqotlarida oilaviy munosabatlar tahliliga doir masalalarni yoritishga e'tibor qaratilgan.

Dastlab yosh oilalardagi nizolar va ularni yuzaga keltiruvchi omillarga nisbatan psixolog olimlar tomonidan taklif etilgan yondashuvlarning mazmun-mohiyati tahlil qilingan. Unga ko'ra, V.A.Sitsenkoning ta'kidlashicha, nikoh turli xil ehtiyojlarni o'zaro qondirish uchun tuziladi. Er-xotinlardan birining yoki ikkalasining muayyan ehtiyojlarini qisman yoki to'liq qondirmaslik kelishmovchiliklarga, keyin esa surunkali nizolarga olib keladi, nikoh barqarorligi buziladi. M.A.Abalakina yondashuviga ko'ra, yosh oilada nikohning dastlabki yillarida, ayniqsa, nikohdan oldingi tanishish davri qisqa bo'lganida, o'z juftini ideallashtirish natijasida turmush qurishdan oldingi tasavvurlarning buzilishi er-xotin o'rtasida ziddiyatga sabab bo'lishi mumkin. E.Dyuvall va R.Xill fikricha, oilaviy nizolarning bir qator xususiyatlari ko'pincha yosh oilaning me'yoriy inqirozlardan o'tishi bilan bog'liq bo'ladi. Nikohning davomiyligini hisobga olgan holda unda sodir bo'ladigan o'zgarishlarning davriyligi oilaviy rivojlanish siklini yuzaga keltirishi bo'yicha olimlar nuqtayi nazariga asoslangani ko'rsatiladi.

Mazkur bob doirasida yosh er-xotinlar o'rtasida ziddiyatlar namoyon bo'lishi muammosini tadqiqotlarda o'rganish tajribasini tahlil qilishda xorij va o'zbekistonlik psixolog olimlarning ishlarga e'tibor qaratildi. Xususan, birinchi bobning asosiy qismida qator olimlar Y.E.Aleshina, A.Y.Ansupov, I.Y.Borisov, S.V.Dvoryak, L.Y.Gozman, D.Z.Kapustin, N.N.Korostileva, S.V.Kovalev, T.A.Kryukova, P.D.Pavlenok, V.A.Sitsenko, V.V.Stolin, V.Z.Vladin, A.G.Xarchev, B.G.Xersonskiy, L.B.Shneyder, A.Adler, G.Olport, J.Dollard, V.Frankl, Z.Freyd, E.Fromm, K.Horney, K.Yung, D.Krech, K.Levin, K.Lorenz, N.Miller, K.Rojers, J.Rotter, J.P.Sartr, V.Satir, R.Sirs va boshqalar tomonidan er-xotinlarning shaxslararo munosabatlari, nizoli vaziyatlarda xulq-atvor shakllarining namoyon bo'lishi, oilaviy ziddiyatlarga erkak va ayollardagi ijtimoiy ustanovkalar hamda shaxsdagi agressivlikning ta'siri, er-xotinlar o'rtasidagi turli kelishmovchiliklarning ijtimoiy-psixologik determinantlari, juftliklarning ijtimoiy rollaridagi tafovutli jihatlari bilan bog'liqligi nuqtayi nazaridan o'rganilganligi ko'rsatilgan.

Yosh er-xotinlarda ziddiyatlar namoyon bo'lishi muammosi o'zbekistonlik psixologlardan D.U.Abdullayeva, H.U.Abdusamatov, F.A.Akramova, R.N.Alimardanova, M.X.Fayziyeva, I.A.Jabborov, V.M.Karimova, X.K.Karimov, Z.B.Rasulova, A.T.Ro'ziqulova, N.A.Sog'inov, S.Sh.Ummatova, E.E.G'oziyev, U.B.Shamsiyev, G'.B.Shoumarov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida juftliklar o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqishining ijtimoiy-psixologik omillari, oilaviy munosabatlarning o'ziga xosliklari, nikohdan qoniqish darajalari, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar turli nizoli holatlar bilan o'zaro bog'liq holda yoritishga harakat qilingan. Shu bilan bir qatorda, Sharq mutaffakirlarining oila qurish istagidagi yoshlarga qo'yiladigan talablar, er-xotinlik fazilatlarini, farzand tarbiyasidagi o'g'itlar bo'yicha bildirgan qarashlari ochib berilgan.

«**Yosh oilada ziddiyatlar yuzaga kelishining empirik o'rganilganligi**» deb nomlangan ikkinchi bobda ziddiyatlarning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, nizoli xulq-atvor shakllari, agressivlik va hayotiy mazmun yo'nalganligining namoyon bo'lishi bo'yicha aniqlangan empirik ko'rsatkichlar tahlillari berilgan. Buning uchun yosh er-xotinlar o'rtasidagi ziddiyatlar va unga ta'sir

qiluvchi komponentlarni o'rganish maqsadida bir qator psixodiagnostik metodikalar majmuasidan foydalanilgan.

Yosh oilada er-xotinlar o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelishiga qaratilgan diagnostika ishimiz uchun maxsus ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma o'tkazildi. Tadqiqot so'rovnomasi sinaluvchilar guruhida o'tkazilib, to'plangan ma'lumotlar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi hamda jadval va diagrammalarda aks ettirildi. Ta'kidlash joizki, sinaluvchilarga so'rovnomada bir qancha javob variantlarini tanlash imkoni berilganligi sababli, umumiy ko'rsatkichlarda foizlarning yig'indisi 100% ga teng kelmaydi.

### 1-jadval

#### Yosh oilalarda ko'p uchraydigan muammolarning namoyon bo'lishi (N=368)

№	Muammolar	Tanlovlar qiymati
1	Hayotiy tajribaning yetishmasligi	43,4%
2	Moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklar	71,3%
3	Moliyaviy taqchillik	69,8%
4	Bir-birini tushunishdagi noaniqliklar	21,8%
5	Kelishmovchiliklar	28,2%
6	Oilaning kelajagi uchun xavotirlanish	15,9%
7	Farzand tarbiyasidagi qiyinchiliklar	14,7%
8	Ijtimoiy rollarni to'liq bajarishda vaqt kamligi	33,6%


1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar yosh oilalarda ko'p hollarda yuzaga keluvchi qiyinchiliklarni aniqlash maqsadida «Yosh oilalarda qanday muammolar ko'p uchraydi deb o'ylaysiz?» deya berilgan savolning javoblaridan olingan. Natijalardan ma'lumki, sinaluvchilarning 43,4%i hayotiy tajribaning yetishmasligi, 71,3%i moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklar yosh er-xotinlar orasida ko'pincha paydo bo'luvchi asosiy muammolardan deb hisoblashadi.

Shu bilan bir qatorda, yosh er-xotinlarning 69,8%i moliyaviy taqchillik, 21,8%i bir-birini tushunishdagi noaniqliklarni tez-tez uchraydigan muammo sifatida baholashadi. Bundan ko'rinadiki, oilani iqtisodiy ta'minlashdagi qiyinchiliklar, uy-ro'zg'or xarajatlari uchun pulning yetishmasligi, er yoki xotinning o'z fikrlari, xatti-harakatlari to'g'ri idrok etilmasligi, bir-birini qo'llab-quvvatlamasliklari ularda oilaviy muammolarning namoyon bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Respondentlarning 28,2%i kelishmovchiliklar, 10,6%i oilaning kelajagi uchun xavotirlanish yosh er-xotinlar orasida kuzatiladigan muammolar ichida yetakchi o'rin tutishini ta'kidlashgan. Shuningdek, yosh er-xotinlarning 14,7%i farzand tarbiyasidagi qiyinchiliklar, 33,6%i ijtimoiy rollarni to'liq bajarishda vaqtning kamligini oilada yuzaga keluvchi asosiy muammo sifatida qayd etishlari aniqlandi. Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, tug'ilgan farzandlar (ayniqsa, birinchi farzand)ni tarbiyalashdagi tajribaning yetishmasligi, to'g'ri tarbiya berish bilan bog'liq tashvishlanish holatlari, oila qurish bilan shakllanadigan er, xotin, ota, ona, kuyov, kelin kabi ijtimoiy rollarning ortishi, undagi mas'uliyat, vazifalarni to'liq amalga

oshirish uchun vaqtning kamligi yosh er-xotinlarda bir qator muammolarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Tadqiqotda yosh er-xotinlarda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarga sabab bo'ladigan omillar aniqlandi. Natijalar 1-rasmda aks ettirildi.



**1-rasm. Yosh er-xotinlar o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi omillarning namoyon bo'lishi (N=368)**

Respondentlarning 41,3%i majburiy nikoh, 58,7%i oilaning moddiy ahvolidan qoniqmaslik yosh oilada ziddiyatlar kelib chiqishiga ta'sir etuvchi asosiy omil ekanligini ta'kidlashgan. Shuningdek, yosh er-xotinlarning 32,5%i sevgining yetishmasligi, 14,6%i rashk tufayli oilaviy nizolar kelib chiqadi deb hisoblashlari aniqlandi. Sinaluvchilarning 19,4%i oilaga boshqa insonlar aralashuvi, 35,9%i er-xotinlik vazifalarining to'liq bajarilmasligi ziddiyatlarga sabab bo'lishini ma'lum qilishgan. Shu bilan birga, yosh er-xotinlarning 51,7%i ziddiyatlar yuzaga kelishiga xarakterdagi nomuvofiqlik, 10,1%i mustaqillikka intilish, 44,5%i oilaga nisbatan mas'uliyatni his qilmaslik holatlari ta'sir o'tkazadi deb javob berishgan. Natijalardan ko'rinib turibdiki, nikohlanuvchi yoshlarning fe'l-atvoridagi xilma-xillik, ikki insonning xarakteridagi tafovutlar, mustaqil yashash istagi, itoat qilishni xohlamaslik, oilani muqaddas deb bilmaslik, javobgarlikni o'z bo'yniga olmaslik, kabilar oilaviy nizolarning kelib chiqishiga turtki bo'ladi.

Tadqiqotda yosh er-xotinlarda kuzatilishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarning oldini olish bo'yicha ishtirokchilarning munosabatlari o'rganildi. Shu nuqtayi nazardan ularga «Er-xotinlar orasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarning oldini olish uchun nimalarga e'tibor berish zarur?» degan savol bilan murojaat qilindi. Mazkur savolga sinaluvchilar tomonidan berilgan javoblar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi hamda 2-jadvalda aks ettirildi.

2-jadvalda keltirilgan natijalarga ko‘ra, sinoluvchilarning 60,1%i yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, 41,5%i oila haqida to‘g‘ri tasavvurlarni hosil qilish, 87,8%i erta nikohlarga barham berish yosh oilalarda ziddiyatlar yuzaga kelishining oldini olishda samarali yechim bo‘lishini ta’kidlashgan.

**2-jadval**

**Yosh er-xotinlar o‘rtasida ziddiyatlarning oldini olish bo‘yicha bildirilgan munosabatlarga oid fikrlari, (N=368)**

<b>№</b>	<b>Chora-tadbirlar</b>	<b>Tanlovlar qiymati</b>
1	Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash	60,1%
2	Oila haqida to‘g‘ri tasavvurlarni hosil qilish	41,5%
3	Erta nikohlarga barham berish	87,8%
4	O‘zaro hurmat hissini shakllantirish	32,3%
5	Vaziyatga oqilona baho berishga o‘rgatish	15,2%
6	Yoshlarni ish bilan ta’minlash	56,9%
7	Er-xotinlarda stressga bardoshlilikni rivojlantirish	19,7%
8	Shaxslararo munosabatlarni yaxshilash	25,3%

Yosh er-xotinlarning 32,3%i o‘zaro hurmat hissini shakllantirish, 15,2%i vaziyatga oqilona baho berishga o‘rgatish, 56,9%i yoshlarni ish bilan ta’minlash ziddiyatlarning oldini olishga zamin hozirlashini ma’lum qilishgan. Natijalardan ko‘rinib turibdiki, yosh er-xotinlarda o‘zaro hurmat hissini tarkib toptirish, yuzaga kelgan tushunmovchiliklarda aql bilan ish tutishga o‘rgatish, salbiy hissiyotlarga berilmaslik, ikkinchi tomon fikrlarini qabul qilish, shuningdek, oilada moddiy yetishmovchiliklar kuzatilmasligi uchun yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish kelgusida turli oilaviy ziddiyat va kelishmovchiliklarning oldini olishga yordam berishini ta’kidlashgan.

Respondentlarning 19,7%i er-xotinlarda stressga bardoshlilikni rivojlantirish, 25,3%i shaxslararo munosabatlarni yaxshilash kabi jihatlarni aynan oilaviy nizolarning oldini oluvchi bosh omillar deb bilishadi. Bundan shuni anglash mumkinki, psixologik-emotsional zo‘riqlashlarga nisbatan chidamlilikni oshirish, salbiy his-tuyg‘ular ta’sirini pasaytirish, oilaning boshqa a’zolari bilan o‘zaro munosabatlarni ijobiy tomonga o‘zgartirish, yangi muhitga moslashishga ko‘maklashish kabi jihatlarni yosh er-xotinlarning nizolashuvchanlik darajalarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Yosh er-xotinlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish imkoniyatlari**» deb nomlanib, unda nizoli vaziyatlarga moyillik, agressivlik darajasi va hayotiy mazmun yo‘nalganligidagi tafovutlarning yosh er-xotinlar o‘rtasidagi ziddiyatlarga ta’siri hamda mazkur komponentlarning o‘zaro aloqadorlik jihatlari, shuningdek, ushbu nizoli holatlarni bartaraf etish imkoniyatlariga doir empirik tahlillar keltirilgan.

Dissertatsiya ishimizda ilgari surilgan muammoni ko‘p tomonlama o‘rganish maqsadida yosh er-xotinlarda namoyon bo‘ladigan ziddiyatlarning nizoli vaziyatlarga

moyillik darajalari bilan aloqadorligini aniqlashga harakat qildik. Shu boisdan ham sinaluvchi guruhlarda Y.E.Aleshina va L.Y.Gozmanning «Nizoli vaziyatlarda er-xotinlarning o‘zaro munosabatlari xususiyati» hamda K.N.Tomasning «Shaxsning konfliktli xulq-atvoriga moyilligini diagnostika qilish» metodikalarini o‘tkazdik. Ushbu so‘rovnomalar orqali sinaluvchilardan olingan umumiy ma’lumotlar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi, uning natijalari 3-jadvalda keltirildi.

O‘tkazilgan metodika natijalariga binoan (3-jadval), yosh oila qurgan er-xotinlarda qarindoshlar va do‘stlar bilan munosabatlardagi muammolar raqobat ( $r=0,77$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan musbat aloqadorlikni tashkil etgan bo‘lsa, hamkorlik ( $r=-0,85$ ;  $p\leq 0,01$ ), murosallilik ( $r=-0,62$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ahamiyatli manfiy korrelyatsion bog‘liqlikka ega ekanligi kuzatildi. Mazkur natijalardan shuni anglash mumkinki, oilaviy munosabatlarda paydo bo‘ladigan nizoli holatlarda qarindoshlar bilan agressiv munosabatda bo‘lish, bahs-munozaradan qaytmaslik, o‘z fikrlarini turmush o‘rtog‘iga keskin bildirish kabi holatlar yosh er-xotinlarda ziddiyatlarning paydo bo‘lishiga asos bo‘ladi. Tadqiqot ishtirokchilarida farzand tarbiyasiga oid muammolar raqobat ( $r=0,65$ ;  $p\leq 0,01$ ) bilan ijobiy bog‘liqlik kuzatilgan bo‘lsa, hamkorlik ( $r=-0,87$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan o‘zaro teskari aloqadorlikni tashkil etishi aniqlandi.

### 3-jadval

#### Yosh er-xotinlarda ziddiyatlar va nizoli xulq-atvor shakllari orasidagi aloqadorlik (N=368) (K.Pirson mezoniga ko‘ra)

Komponentlar	Nizoli xulq-atvor shakllari				
	Raqobat	Hamkorlik	Murosallilik	Tortishuvdan qochish	Moslashuvchanlik
Qarindoshlar va do‘stlar bilan munosabatlardagi muammolar	0,77*	-0,85**	-0,62*	0,11	0,21
Farzand tarbiyasiga oid muammolar	0,65**	-0,87*	-0,33	0,80	0,29
Mustaqillikka intilishning namoyon bo‘lishi	0,52*	-0,43**	-0,65*	0,21	0,17
Rolli kutuvlarning buzilishi	0,10	0,29	0,68	-0,91*	0,69
Xulq-atvor me‘yorlarining mos kelmasligi	0,83**	0,35	0,47	0,23	-0,69*
Turmush o‘rtoqlardan birida hukmronlikning namoyon bo‘lishi	0,78**	0,11	-0,49**	0,18	0,07
Rashkning namoyon bo‘lishi	0,02	0,59	0,37	0,28	0,01
Pulga nisbatan munosabatlarning mos kelmasligi	0,66**	-0,38*	0,07	0,83	0,72

Izoh: \*  $p\leq 0,05$ ; \*\*  $p\leq 0,01$

Yosh er-xotinlarda mustaqillikka intilishning namoyon bo'lishi komponenti raqobat ( $r=0,52$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ijobiy korrelyatsion bog'liqlik, hamkorlik ( $r=-0,43$ ;  $p\leq 0,01$ ), muosalilik ( $r=-0,65$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ahamiyatli manfiy aloqadorlikka ega ekanligi kuzatildi. Shu bilan birga, rolli kutuvlarning buzilishi komponenti tortishuvdan qochish ( $r=-0,91$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ahamiyatli manfiy korrelyatsion aloqadorlik qayd etildi.

Xulq-atvor me'yorlarining mos kelmasligi raqobat ( $r=0,83$ ;  $p\leq 0,01$ ) bilan ijobiy bog'liqlikni qayd etgan bo'lsa, moslashuvchanlik ( $r=-0,69$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ahamiyatli teskari aloqadorlik mavjudligi ma'lum bo'ldi. Bundan ko'rinadiki, oilaviy munosabatlarda yosh er-xotinlardagi xulq-atvorlarning nomuvofiqligi, xatti-harakatlarning bir-biriga zidligi, fe'l-atvorlar o'zaro mos kelmasligining ortishi turmush o'rtoqlar orasida nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishiga ta'sir qilib, bahslashuvchi tomondan ustun kelishga intilish, raqobat munosabatini hosil qilishning ham ortishiga olib keladi.

Turmush o'rtoqlardan birida hukmronlikning namoyon bo'lishi raqobat ( $r=0,78$ ;  $p\leq 0,01$ ) bilan musbat bog'liqlik, muosalilik ( $r=-0,49$ ;  $p\leq 0,01$ ) komponentlari bilan esa manfiy aloqadorlik aniqlandi. Pulga nisbatan munosabatlarning mos kelmasligi raqobat ( $r=0,66$ ;  $p\leq 0,01$ ) bilan ijobiy bog'liqlikni tashkil etgan bo'lsa, hamkorlik ( $r=-0,38$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ahamiyatli manfiy aloqadorlik mavjudligi kuzatildi. Bundan ko'rinadiki, turmush tarzida yosh er-xotinlarda moliyaviy masalalardagi fikrlarning yakdil emasligi, iqtisodiy tomonlama qarashlarning farq qilishi, pulni sarflash bo'yicha kelishmovchiliklarning ortishi turmush o'rtoqlar orasida nizoli vaziyatlarning namoyon bo'lishiga ta'sir qilib, bahs davomida bir-biridan ustun kelishga harakat qilish, ziddiyatli munosabatni hosil qilishning ham ortishiga olib keladi.

Tadqiqotda yosh oila qurgan er-xotinlar o'rtasida ziddiyatlarning namoyon bo'lishi aynan ulardagi agressivlik darajasiga bog'liqligini tekshirishga harakat qilindi. Shu boisdan ham sinaluvchilar guruhlarida Y.E.Aleshina va L.Y.Gozmanning «Nizoli vaziyatlarda er-xotinlarning o'zaro munosabatlari xususiyati» hamda Bass-Darkining «Tajovuz holati tashxisi» metodikalari o'tkazildi. Yosh er-xotinlardan mazkur metodika orqali olingan umumiy ma'lumotlar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi, uning natijalari quyidagi 4-jadvalda aks ettirildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra (4-jadval), yosh oiladagi er-xotinlarda qarindoshlar va do'stlar bilan munosabatlardagi muammolar verbal tajovuzkorlik ( $r=0,93$ ;  $p\leq 0,01$ ), bilvosita tajovuzkorlik ( $r=0,58$ ;  $p\leq 0,05$ ), tajanglik ( $r=0,47$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ahamiyatli musbat korrelyatsion bog'liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari, respondentlarda farzand tarbiyasiga oid muammolar verbal tajovuzkorlik ( $r=0,77$ ;  $p\leq 0,05$ ), negativizm ( $r=0,74$ ;  $p\leq 0,01$ ) bilan o'zaro ijobiy aloqadorlikni tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Natijalardan shuni ta'kidlash joizki, yosh er-xotinlarda turmush tarzida bola parvarishi bo'yicha tushunmovchiliklarning ko'p kuzatilishi salbiy hissiyotlarini nutqda ifodalash, turmush o'rtog'iga tanbeh berish, o'z fikrida qat'iy turib olish, o'zgalarga qo'shilishni istamaslik kabi jihatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Yosh er-xotinlarda rolli kutuvlarning buzilishi verbal tajovuzkorlik ( $r=0,39$ ;  $p\leq 0,01$ ), tajanglik ( $r=0,44$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ahamiyatli ijobiy korrelyatsion bog'liqlikka

ega ekanligi kuzatildi. Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, tadqiqot ishtirokchilarida nikohdan oldin bir-biridan umid qilgan jihatlar ro'yobga chiqarilmasligining ortib borishi o'z noroziliklarini ochiq bayon qilish, oilaviy majburiyatlarni talab qilish, shuningdek, agressiv munosabatda bo'lish, asabiylik xususiyatlarining rivojlanishiga turtki bo'ladi.

#### 4-jadval

#### Yosh er-xotinlarda ziddiyatlar va agressivlik komponentlari orasidagi aloqadorlik (N=368) (K.Pirson mezoniga ko'ra)

Komponentlar	Agressivlik turlari							
	Jismoniy tajovuzkorlik	Verbal tajovuzkorlik	Bilvosita tajovuzkorlik	Negativizm	Tajanglik	Shubhalanuvchanlik	Xafagarchilik	Aybdorlik hissi
Qarindoshlar va do'stlar bilan munosabatlardagi muammolar	0,69	0,93**	0,58*	0,34	0,47*	0,33	0,28	0,31
Farzand tarbiyasiga oid muammolar	0,52	0,77*	0,27	0,74* *	0,42	0,07	-0,37	0,45
Mustaqillikka intilishning namoyon bo'lishi	0,32	0,40	0,81	0,37	0,63	0,20	0,34	0,01
Rolli kutuvlarning buzilishi	0,11	0,39**	0,78	0,92	0,44*	0,32	0,41	0,36
Xulq-atvor me'yorlarining mos kelmasligi	0,58	0,34*	0,02	0,43	0,51*	0,39	0,24	0,33
Turmush o'rtoqlardan birida hukmronlikning namoyon bo'lishi	0,24	0,43**	0,37	0,19*	0,69	0,35	0,56	0,08
Rashkning namoyon bo'lishi	0,39	0,45*	0,42	0,38	0,66	0,82**	0,43	0,17
Pulga nisbatan munosabatlarning mos kelmasligi	0,63	0,31*	0,37	0,64* *	0,28	0,47	0,36*	0,44

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$

Xulq-atvor me'yorlarining mos kelmasligi komponenti verbal tajovuzkorlik ( $r=0,34$ ;  $p \leq 0,05$ ), tajanglik ( $r=0,51$ ;  $p \leq 0,05$ ) bilan ahamiyatli musbat korrelyatsion aloqadorlik aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlardan anglash mumkinki, turmush davomida kuzatiladigan yosh er va xotin xarakterlarining o'zaro nomuvofiq kelishi holatlarining ortishi ularning og'zaki ravishda jahlini bir-biriga namoyon qilish, kamsitish, qo'pol

munosabatda bo'lish, xulq-atvorda agressivlikning keskin ifodalanishi kabi omillarning kuchayishiga olib keladi.

Turmush o'rtoqlardan birida hukmronlikning namoyon bo'lishi verbal tajovuzkorlik ( $r=0,43$ ;  $p\leq 0,01$ ), negativizm ( $r=0,19$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligi qayd etildi. Bundan ko'rinadiki, oilaviy hayot jarayonida juftliklardan birida munosabatlarni boshqarishga intilish, nazoratni o'z qo'lga olishni xohlash darajalarining ortishi yosh er-xotinlar xulq-atvorida og'zaki jahldorlik, o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qilish, turmush o'rtoq'ining istaklariga qarshi chiqish, salbiy munosabat ko'rsatish xususiyatlarining ham ortishiga ta'sir qiladi.

Rashkning namoyon bo'lishi verbal tajovuzkorlik ( $r=0,45$ ;  $p\leq 0,05$ ), shubhalanuvchanlik ( $r=0,82$ ;  $p\leq 0,01$ ) komponentlari bilan ahamiyatli bog'liqlik aniqlandi. Respondentlarda pulga nisbatan munosabatlarning mos kelmasligi verbal tajovuzkorlik ( $r=0,31$ ;  $p\leq 0,05$ ), negativizm ( $r=0,64$ ;  $p\leq 0,01$ ), xafagarchilik ( $r=0,36$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan o'zaro ijobiy aloqadorlikni tashkil etishi qayd etildi. Natijalardan ma'lum bo'ladiki, yosh oila qurgan er-xotinlarda turmush davomida bir-birlarini qizg'anishi, begona insonlar bilan muloqot qilishini xohlamaslik xususiyatlari ulardagi e'tirozlarni og'zaki tarzda bildirish, jahlini nutqda namoyon qilish, shuningdek, nojo'ya xatti-harakatlardan xavfsirash, o'z juftidan gumonlanish sifatlari bilan bevosita aloqadorlikni tashkil etadi.

#### 5-jadval

#### Yosh er-xotinlarda ziddiyatlar va hayotiy mazmunning yo'nalganligi komponentlari orasidagi aloqadorlik (N=368) (K.Pirson mezoniga ko'ra)

